

**“TERMIZ” DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI VA TERMIZ
HAYVONOT BOG‘I ASOSCHISI G. V. PARFYONOVNING IBRATLI
HAYOT YO‘LIDAN LAVHALAR.**

Qarshiyev Xikmatilla Quvvatovich

“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi
bo‘lim mudiri

Annotatsiya: maqolada “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi va Termiz hayvonot bog‘i asoschisi G. V. Parfyonovning hayot yo‘li, ilmiy faoliyati yoritilgan bo‘lib, har bir muzeyshunos ibrat olsa arziydigan voqe‘liklar qayd etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, Torstaris, arxitektura yodgorliklari, o‘lkashunoslik muzeyi, Sherobod, Sheroboddaryo arxeologik ekspeditsiyasi, Zarautsoy, Termiz hayvonot bog‘i.

Parfyonov 1933 yilda Surxondaryodagi Torstaris vakili etib tasdiqlanadi. Vakolati natijasiga ko‘ra, Sulton-Saodat maqbarasining me‘moriy majmuasi G. V. Parfyonovning Termiz okrugida qat‘iyati tufayli ushbu noyob kompleks saqlab qolinadi.

Gavriil Vasilyevichning taklifiga binoan, Termiz shahrida Arxiv byurosi tashkil etilgan. Parfyonov anchagina payt eski Termiz arxitektura yodgorliklarini tiklash ishlariga katta e‘tibor qaratgan. Ishchi guruhlardan birining boshlig‘i sifatida u Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasida ishtirok etadi: “Termizshohlar saroyi”ni qazish ishlarini olib bordi. Ish 1937 yilda yakunlandi va bu ish “Eski Termiz shaharchalarini tadqiq qilishning qisqacha tarixi”ga asos bo‘ldi.

1938 yilda uning tashabbusi bilan “Sheroboddaryo arxeologik ekspeditsiyasi” tashkil etildi. Ushbu ekspeditsiyada Uzkomstarisdan alohida otryad tarkibida keyinchalik mashhur arxeolog A. P. Okladnikov bilan birga ishtirok etdi va mashhur Teshiktosh g‘orini dafn etilgan bola bilan topishdi.

1939 yilda II “Sheroboddaryo arxeologik ekspeditsiyasi” tashkil etildi. Aynan mana shu ekspeditsiya Parfyonovni mashhur qildi, chunki bunda

Ko'hitang tog' etagi Qizil olma qishlog'i yaqinidagi Zarautsoy darasida tosh davriga oid turli xil hayvonlar va ov sahnalari – g'or rasmlari to'plami topildi. Bu O'rta Osiyoda birinchi marta eng qadimiy rangli rasmlarning topilishi edi.

Urush paytida Parfyonov Termiz shahriga Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi direktori lavozimiga yuboriladi. Parfyonov Termizga qaygach, u Zarautsoy topilmasini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Navbatdagi Zarautsoy ekspeditsiyalari 1943-45 yillarda tashkil etildi. Ekspeditsiya barcha tosh rasmlarini to'liq hajmda rangli nusxalash, o'ziga xos tabiiy landshaftlarning eskizlari, barcha panellar va ulardagi alohida rasmlarning batafsil tavsifi, shuningdek, yangi tosh rasmlarini qidirish, atrofni arxeologik rekognitsirovka qilish ishlarini olib bordi. Ekspeditsiya ocharchilik va boshqa qiyin sharoitlarda o'tdi. Asosan, ushbu ekspeditsiyadan so'ng Zarautsoyning rasmlari ilmiy doiralarda shov-shuv bo'ladi, Zarautsoyning qoya rasmlari haqida ma'lumot Moskvada ham paydo bo'ldi va dunyoga ovoza bo'ldi. Ilmiy dunyo Zarautsoyning tosh rasmini dunyo ahamiyatiga ega ilmiy haqiqat deb tan oldi. Moskvadagi ilmiy anjumanlarda G. V. Parfyonov Zarautsoy qoyatosh rasmlari haqida ma'ruzalar qildi va 1946 yil dekabr oyida Toshkentda uning taklifiga binoan O'zbekistonning ibtidoiy san'ati bo'yicha respublika konferensiyasi o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari G. V. Parfyonov tomonidan qo'lyozmalarda (20 ming sahifadan ortiq) bayon etilgan va rasmlar va fotosuratlar bilan 13 ta top-albomlarda qayd etilgan va Toshkentda, Smolenskda, Belorussiya va boshqa joylarda bosilgan. G. V. Parfyonovning qo'lyozmalari asosan O'zbekiston FA arxivida, qisman Sankt-Peterburgda va boshqa joylarda saqlanmoqda. Smolenskdagi davlat arxivi va muzey-qo'riqxonada G. V. Parfyonovning kundaliklari, hujjatlari, fotosuratlari va boshqa materiallari, shu jumladan akademik P.K. Kozlov xatlarining bir qismi saqlanadi.

Qahramonimizning mehnatlari ham e'tiborsiz qolmadi, 1944 yil G. V. Parfyonovga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" faxriy unvoni beriladi, 1946 yilda u "Buyuk Vatan urushidagi mardona mehnati uchun" medali bilan taqdirlanadi.

Termiz muzeyida direktorlik qilgan yillarida u tez-tez turli matbuotlarda ko'plab chiqishlar qiladi, albatta, bu chiqishlar birinchi navbatda unga eng yaqin mavzularda – Surxondaryo o'lkasining qadimiy buyumlarini o'rganish, mahalliy muzey faoliyati, o'lkashunoslik ishlari haqida bo'lar edi.

Uning o'lkashunoslik maqolalariga viloyatning turli chekkalaridan mahalliy o'lkashunoslar javob berishadi, ular unga shu paytgacha noma'lum bo'lgan arxeologik ob'ektlar to'g'risida ma'lumot berishadi. Shunday qilib, Parfyonov doimiy ravishda yangi ko'ngilli yordamchilarni, xususan maktab o'quvchilari orasidan qabul qilib, ularni arxeologik ishlarga jalb qiladi. U har doim bolalar bilan ishlashga, ular orasida tarixiy bilimlarni ommalashtirishga ko'p vaqt va kuch sarflagan, maktab o'lkashunoslik muzeylarini yaratishda yordam bergan, 50-yillarda bolalar bilan ishlash uning deyarli asosiy ishi bo'ladi. Mashhur arxeolog M. E. Masson buni "...juda zarur va foydali ish" deb atagan edi.

1944 yil boshida o'zining gazeta nashrlaridan birida Gavriil Vasilievich tez – tez brakonerlik, noyob hayvonlar-arxarlar va morxo'r echkilarini ommaviy ravishda o'ldirishga e'tibor qaratadi. "Bularning barchasi, – deb yozadi u g'azab bilan, - bizning noyob hayvonlarimizning xavfsizligi uchun jiddiy tashvish tug'diradi va tabiatni muhofaza qilish organlarining jinoiy harakatsizligi va kelishuvidan dalolat beradi". Bundan tashqari, uning O'zbekistonda poytaxtdan keyin ikkinchi bo'lgan Termiz hayvonot bog'ini tashkil etishdagi xizmatlari katta, u o'lkani o'rganishda va muzeyni rivojlantirishda o'ziga xos yo'nalish, ya'ni Surxondaryo o'lkasi yovvoyi hayvonlarining tirik burchagini tashkil etadi. Termiz va viloyat aholisi noyob hayvonlar turlarini ko'plab olib kelishni boshlaydi. Keyinchalik bu ishlar 1935 yilda ochilgan Termiz hayvonot bog'ining paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Urush yillarida hayvonot bog'i tugatiladi, 1946 yilda tiklanadi va yana Parfyonov bu ishning tashabbuskori bo'ladi. Parfyonovning tegishli chiqishlari, Janubiy O'zbekiston tarixi yodgorliklariga e'tiborni jalb qilish hokimiyat tuzilmalari tomonidan Surxondaryo viloyatining bir qator taniqli me'moriy yodgorliklarini tiklash to'g'risida qaror qabul qilishda, buning uchun mablag' ajratishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Ta'mirlangan ushbu inshootlar ro'yxatiga Al-Hakim Termiziy maqbarasi, Termizshohlar saroyi, Jarqo'rg'on minorasi, Qirqqiz, Iso at-Termiziy maqbarasi, Sulton Saodat maqbarasi, Murch bobo maqbarasi va boshqalarni kiritish mumkin.

G. V. Parfyonovning bunday jamoat ishlarda faolligining natijasida u Termiz shahar kengashi deputati etib saylanadi.

1948 yilda u Zarafshon arxeologiya ekspeditsiyasida ishtirok etadi. Aynan shu yillarda Parfyonov o'zining bir qator arxeologik monografiyalarini shu yerda yakunlaydi. Shu jumladan, uning asosiy ilmiy ishi deb hisoblanishi kerak bo'lgan asar –“Zarautsoyning qoyatosh rasmlari” ham.

Taniqli olim, tarix fanlari doktori, professor A. P. Okladnikov shunday degan edi: “...Zarautsoyning qoya tasvirlarini maxsus ilmiy tadqiq etish xizmatlari Gavriil Vasilyevichga tegishli. Parfyonov va uning xodimlari, bir necha yillar davomida urush davridagi qiyin sharoitlarda ham yangi tosh tasvirlarini aniqlash bo'yicha mashaqqatli ish olib borishgan... bu qadimiy madaniyat va san'atning chinakam ajoyib yodgorligidir... uning ahamiyati O'rta Osiyodan ancha uzoqqa cho'zilgan...”.

1958 yilda Gavriil Vasilievich tarix va arxeologiya instituti shtatiga qabul qilinadi. Bu vaqt davomida G. V. Parfyonov bolalar bilan juda ko'p ishlaydi. U yaxshigina arxeologiya to'garagini ham tashkil etadi. Toshkent maktab o'quvchilari bilan birgalikda Toshkent hududida va uning atrofida arxeologik tadqiqotlar olib boradi. 1957 yilning kuzida, G. V. Parfyonov O'zbekiston fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining Bo'stonliq arxeologiya otryadiga shartnoma bo'yicha boshchilik qiladi, unga kelgusi yozda ilmiy jihatdan katta va qimmatli ishlarni bajaradigan yosh arxeologlar guruhi ham qo'shiladi. Aynan shu maktab o'quvchilaridan tashkil topgan “arxeologlar” 1958 yilda sobiq Ittifoqda eng yaxshi deb topiladi va bu voqea o'sha paytda maktab o'lkashunosligini tiklash kampaniyasining boshlanishiga va o'quvchilar “arxeologik otryadlari”ning “yomg'irdan keyin qo'ziqorin” kabi o'sishiga olib keladi. O'limidan sal oldin, 1967 yil iyul oyida og'ir kasal bo'lgan Gavriil Vasilievich radiodan Surxondaryo viloyati Denov tuman markazida o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilayotganini

bilib qoladi. Shunda u Denov muzeyiga o'z kutubxonasining asosiy qismini, Turkistonshunoslikka oid ming jilddan ortiq kitoblarini sovg'a qilishi haqida xabar beradi. Parfyonov o'sha xatida shunday deydi: "... mening kutubxonam Denov muzeyida abadiy saqlanishi uchun ... bu mening Surxondaryoga bo'lgan muhabbatim va hurmatim bo'ladi, men unga eng yaxshi yillarimni va uni o'rganish uchun mashaqqatli mehnatimni berdim".

Gavriil Parfyonovning qadimiy qo'lyozmalar va kitoblarni saqlab qolishdagi xizmatlari katta. Ulardan 130 tasi hozirda Termiz Arxeologiya muzeyida saqlanmoqda. Ular orasida XII asrda yozilgan "Hazrat Xoqoni Azizon", 1911 yilda nashr etilgan Xo'jvirining "Kashf ul mahjub" kitobi, D. N. Logofetning "Rossiya protektorati ostidagi Buxoro xonligi" kitobi, XIX asrda rus rohibi N. Ch. Bichurin tomonidan Xitoy manbalari asosida yozilgan bir nechta jildlar xususan, "Qadimgi davrlarda O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami" va boshqalar.

O'tgan asrning 50-yillarida Gavriil Vasilyevich nafaqaga chiqib, Toshkentga jo'nab ketadi. Guvohlarning eslashicha, u so'nggi yillarini chodirda, tabiat qo'ynida o'tkazgan...

Adabiyotlar:

1. Юрий Флыгин. Не в таинственный Тибет, а в Среднюю Азию.
2. А. Маматказина Он сохранил для нас историю края...Заря Сурхана
30.07.2020
3. А. Холмирзаев Зараутсой тилсимлари.
4. <https://www.smolensk-museum.ru> Гавриил Васильевич Парфенов (1897-1967)
– создатель Рачевского музея в Смоленске 16.03.2022
5. <https://www.Gaso-smolensk.ru> Ф.Р-916. Парфенов Гавриил Васильевич –
археолог-краевед.1867-1966.
6. <https://vesti.uz>. Хранитель древностей термеза. 23.03.2012
7. <https://mytashkent.uz> Открыл миру тайны Зараутсая